

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sharoitida Go‘Sht Yo‘Nalishidagi Edilbay Zotli Qo‘Ylarning O‘Sib- Rivojlanish Xususiyatlari

*Q. Sh. Xudayqulova<sup>1</sup>, R.U. Turganbayev<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston respublikasida Edilbay qo‘y zotlarining mahsuldarlik xususiyatlariga, ularning tarqalish hududlariga, keskin iqlim sharoitga moslashuvchanlik xususiyatlariga va ayrim biologik xususiyatlariga tarif berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Edilboy zoti, mahsuldarlik, hudud, iqlim, moslashuvchanlik, biologik xususiyatlari.

**Kirish.** Qo‘ychilik qishloq xo‘jaligining eng talabchan va ommabop tarmoqlaridan biridir. Yirik va kichik fermer xo‘jaliklarida to‘qimachilik sanoati uchun katta hajmdagi sut va go‘sht mahsulotlari, shuningdek, jun va teri ishlab chiqariladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda eng mashhur hisoblangan Edilbay qo‘ylarining mahsuldarlik xususiyatlari haqida ma‘lumot beramiz. Edilbay zotlari Qozog‘istonning markaziy va shimoliy hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham bu qo‘y zotlari ko‘paytirilib kelinmoqda.

Shu sababli go‘sht yo‘nalishidagi dumbali qo‘ylar qatoriga kiruvchi Ediboy zoti respublika aholisining go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish borasida ayniqsa, go‘sht mahsulotlarining miqdori va sifatini oshirishda hamda seleksion-texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarda go‘sht yo‘nalishidagi qo‘ylarning mahsuldarligi bo‘yicha seleksiyasini tashkil etish orqali uni zotdorligini yaxshilash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Buning natijasida mazkur zotning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, genetik salohiyatini oshirishga erishildi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida qo‘ylarning irsiy xususiyatlaridan foydalaniib, mahsuldarligini sifat jihatdan yaxshilash va miqdorini ko‘paytirish hamda ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga sarf xarajatlarni kamaytirishga erishilmoxda.

Mustaqillik yillarda respublikaga chetdan go‘sht yo‘nalishidagi qo‘y zotlarini olib va ular moslashtirish, mahalliy kam mahsuldarli qo‘ylar bilan juftlash orqali mahsuldarligini oshirish ishlari olib borilgan. Bizning ilmiy ishimizda ham aynan chetdan keltirilgan Edilbay zotli qo‘chqorlar bilan mahalliy qo‘ylarni juftlashga qaratilgan.

Bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblangan genetika yutuqlariga asoslangan holda, zamonaviy naslchilik texnikasining yuqori darajasi, o‘sish va rivojlanish qonuniyatları, foydali mahsuldarlik ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi turli belgilar o‘zaro bog‘liqligining genetik shartliligi, qo‘y go‘shti yetishtirishda yuqori mahsuldar turlarini ko‘paytirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Yosh chorva mollarining tirik vazni va semizlik darajasi salohiyatining boshqa belgilari bo‘yicha genetik bog‘liqligi yuqori bo‘lgan eng yaxshi hayvonlarni tanlash va saralash ishlarini yo‘lga qo‘yishdir.

**Tadqiqot joyi.** Tadqiqotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanining “Sultanov To‘xtaboy” fermer xo‘jaligida urchitiluvchi Edilbay va jaydari zotli go‘sht yo‘nalishidagi qo‘ylarda bajarildi.

<sup>1</sup> stajor tadqiqotchi

<sup>2</sup> ilmiy rahbar, q.x.f.d., professor. Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali



**Tadqiqot uslubiyati.** Turli yoshdagi qo‘ylarning (tug‘ilganda, 4-4,5 oylikda, 12 oylikda, 18 oylikda) tirik vazn dinamikasi platformali va elektron tarozilarda tortish yo‘li bilan aniqlandi.

**Asosiy qism.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitda Edilbay zotining tavsifiga kelsak, Edilbay zotiga mansub qo‘ylar dum qismida yog‘ birikmalari bo‘lgan semiz dumli qo‘ylar hisoblanadi. Asosiy xususiyatlar, shoxlarning to‘liq yo‘qligi, tor va uzun tumshuq shakli. Jag‘ va tishlarning maxsus tuzilishi va qo‘ylarning qo‘pol ozuqa bilan oziqlanishi bilan bog‘liq.

Edilbay qo‘ylari yetishtiriladigan asosiy mahsulot turi semiz dum yog‘i va go‘shti hisoblanadi. Bu zotning qo‘ylari juda tez o‘sadi, qo‘chqorlarning tirik vazni taxminan 110 kg, sovliqlarning vazni esa yarmi, taxminan 65 kg. Garchi bu zotda qizil va qora ranglar ko‘pincha ustunlik qиласада, ба‘зда jigarrang qo‘ylarni ham topish mumkin. So‘yishning mahsuldarligi taxminan 50% ni tashkil qiladi, ya’ni 4 oylik qo‘zi taxminan 20 kg mahsulot beradi. Kattalar semiz qo‘chqordan taxminan 40 kg olishingiz mumkin. Ayniqsa, iste’mol bozorida qo‘ylardan yosh qo‘zilarning go‘shti mashhur. Bunday go‘shtning kaloriyasi ancha yuqori bo‘lsa-da, u semiz qo‘y go‘shtiga qaraganda ancha kam yog‘ni o‘z ichiga oladi.

Junga kelsak, Edilbay qo‘ylari orasida ikkinchi darajali mahsulot hisoblanadi. Jun tolasining uzunligi deyarli 15 sm bo‘lishiga qaramay, jun juda nozik. Biroq, bu zot junlari juda qattiq va asosan gilam ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Junning bunday xususiyatlarga qaramay, u gilam va qishki kiyimlarni tayyorlash uchun keng qo‘llaniladi. Qozoq dashtlari aholisi orasida qo‘y terisidan tikilgan kiyim-kechaklarga talab katta.

Ko‘pchilik fermerlarni Edilbay zotli qo‘ylar nechta qo‘zi olishi qiziqtirmoqda. Afsuski, qo‘ylarning unumdarligi ancha past. Ko‘pincha bu qo‘ylardan bitta qo‘zichoq, ba‘zan ikkita qo‘zichoq, uchtasi juda kam uchraydi. Ammo qo‘y me‘yorlariga ko‘ra, bu zot yaxshi sut ishlab chiqarishga ega, yiliga o‘rtacha 125-180 litr. Edilbay qo‘ylari sutining yog‘liligi sezilarli darajada o‘zgarib turadi: 3% dan 9% gacha. Undan ayron, pishloq va sariyog‘ tayyorlanadi.

Mahalliy go‘sht yo‘nalishidagi jaydari zotli qo‘ylar hududda azaldan urchitilib kelinmoqda. «Jaydari» o‘zbek tiliga tarjimada mahalliy degan ma’noni anglatadi, bu termin zotning kelib chiqishiga mos keladi. Bu qo‘ylar xalq chorvadorlari tomonidan mahalliy dumbali O‘zbekistonda urchitiladigan qo‘ylarni tojik qo‘chqorlari bilan chatishtrish orqali go‘sht-yog‘ mahsuldarligini oshirish va jun sifatini yaxshilash maqsadida yaratilgan.


Jaydari qo‘ylar kalta oyoqli, tanasi bochkasimon va cho‘zilgan, katta keng va baland dum-yog‘li quyruqli qo‘ylar hisoblanadi. Jussasi katta bo‘lib, qo‘chqorlarning vazni 110 kg. gacha, urg‘ochilari - 65 kg. gacha keladi.

Jaydari qo‘ylarida asosan rangi asosan (podaning 70% gacha) qora, ayrimlari qizil, jigarrang va kulrang ranglar aralashmasida turadi. Jun morfologiyasi bo‘yicha tivit miqdori o‘rtacha zot uchun 61% gacha, qolgan qismi oraliq va qilchiq jun tolalariga, o‘lik jun tolesi miqdori 16% gacha va jun uzunligi 11 sm ga yetadi. Jun yiliga ikki marta qirqib olinadi, jundan asosan mahalliy xalqlar tomonidan to‘sak, gilam, dag‘al matolar, kigiz tayyorlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qo‘ychilikning asosiy bo‘lagi dumbali qo‘ylar bo‘lib, an‘anaviy va tarixiy tarmog‘i hisoblanadi. Hududda asosan jaydari zotli qo‘ylar populyatsiyasiga kiruvchi dumbali qo‘ylar rivojlantiriladi. Ulardan go‘sht va yog‘ ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida, keyingi yillarda chetdan olib kelingan Edilboy zotlari bilan juftlash ishlari olib borilmoqda.

Bu ishlarni ma’lum darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bizning tajriba ishlarimizda Edilboy qo‘chqorlarni jaydari qo‘ylari bilan juftlash va shu tariqa go‘sht mahsuldarligin oshirishda tirik vazni bo‘yicha olib borilgan natijalar 1-rasmida umumlashtirilgan.





\* $p < 0,001$

### 1-rasm. Edilbay, jaydari va ularning duragaylarining yoshi davrida tirik vaznga o'sish dinamikasi

1-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, tajribadagi ona hayvonlarning bir xil sharoitda saqlanishiga qaramay, qo'zilarda yangi tug'ilgan davrdan boshlab, farqlanishlar kuzatilib, bu holat yangi tug'ilgan davrda qo'zilar tirik vaznida aks etgan. Bunday holatni ular genotipi bilan bog'liqligini tushuntirish mumkin.

Tug'ilgan davrda boshqalarga nisbatan jaydari zotiga mansub qo'zilar kamroq (3,70) tirik vaznga ega bo'lgan bo'lsa, Edilbay va uning duragaylarida bu ko'rsatkich 0,5-0,2 kg.ga ustunlik qildi. Shu bilan bir qatorda, bunday farqlanishlar yoshi dinamikasida saqlanib qolgan. Edilbay zotlariga mansub hayvonlar tirik vazni bo'yicha ustunligi duragaylar va jaydari zotlariga nisbatan 4,5-5 -oyligida shunga mutanosib ravishda 3,3 va 6,5 kg; 18- oyligida esa, 4 va 1,8 kg.ni tashkil qilgan.

**Xulosa.** Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida chetdan keltirilgan Edilboy zotli go'sht yo'nalişidagi qo'chqorlarni mahalliy jaydari qo'ylar bilan juftlashda go'sht mahsuldarligining 7-oylik davrida tirik vazni bo'yicha 7,5 foizga ustunlikka erishiladi va aynan shu davrda go'sht uchun so'yish tavsiya qilinadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

- O'zbekistonda qo'ylarni parvarishlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma Tashkent-2019
- "Qo'ychilik asoslari" o'quv-uslubiy qo'llanma Samarqand-2023
- Turganbaev R.U Yu.Sultanov, Chorvachilik va naslchilik ishi 2021-yil №1 24-25 betlar.

